

**TALABALAR IJTIMOY TASHABBUSKORLIGINI RIVOJLANTTIRISHDA
TA'LIM MUASSASASINING IJTIMOY-MADANIY
MUHITI RIVOJLANTIRISHNING
PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI**

Latipova Nigora Isakovna

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti

Farg'ona filiali o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada talaba-yoshlarni faol fuqarolik tashabbuskorliklarini rivojlantirish, intellektual salohiyatli barkamol shaxs qilib tarbiyalash, ijtimoiy faol fuqarolik ta'limi, fuqarolik burchi, majburiyati va huquqlarni bilish, unga rioya etish, huquqiy munosabatlarda muomala va huquqiy madaniyatga ega bo'lish kabi sifatlar talabalarni professional kasb egasi bo'lib voyaga yetishining pedagogik-psixologik ta'sir etish yo'llari yoritib o'tilgan

Kalit so'zlar: islohot, ta'lim, ijtimoiy faollik, faol fuqarolik, kompetensiya, yetuk, barkamol, shaxs, jamiyat, demokratiya, adolat

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlarga ta'lim-tizimida olib borilayotgan islohotlar o'z samarasini ko'rsatmoqda. «Islohot - bu yangilanish, o'zgarish degani. Islohotlar ijobiy natija berishi uchun, avvalo, rahbarlarimiz va odamlarimiz o'zgarishi kerak. Inson o'zgarsa, jamiyat o'zgaradi»[2, 252-b]. Chunki, har qanday islohot zamirida yoshlarimiz faolligi, tashabbuskorligi va ularning ilmi-ijodiy g'oyalarini qo'llab quvvatlash ishlarini olib borilishi jamiyat ertangi kuni farovonligidan dalolat beradi. Shuning uchun, talabalarning ijtimoiy hayotda faolligini rivojlantirish, adolat, huquqiy tenglik, demokratik davlat, fuqarolik jamiyati qurish yo'lida eng muhim tashabbuskor omil bo'lib xizmat qiladi.

Mamlakatimizda yoshlarning har tamonlama yetuk shaxs sifatida voyaga yetishida jamiyat taraqqiyoti muhim o‘rin tutishi bilan birga, uning ijtimoiy faol fuqaro bo‘lib faollashuvi muhim o‘rin tutadi. Talabalarda ijtimoiy tashabbuskorligini rivojlantirish bugungi kunda dolzarb masala bo‘lib bormoqda. Fuqaro, faol fuqarolik tushunchalari mazmun mohiyati to‘g‘risidagi tasavvur bilan bog‘liq yondashuvlar, turli darvlarda turlicha talqin qilingan. Ijtimoiy faollikni rivojlantirish ta‘limining maqsadi, doimo insonni jamiyatda faol faoliyatga, davlatning ijtimoiy-siyosiy hayotida ishtirok etishga, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lishga intilish bo‘lgan. Shunga qaramay, inson hayotida davlat va jamiyatning roli turlicha talqin etilgan.

Talabalarda ijtimoiy faolligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlarini aniqlashtirish, bizningcha quyidagi fikr mulohazalarni ta‘kidlab o‘tish imkonini berdi:

- yosh avlodni tarbiyalashda fuqarolik jamiyatining asosiy vazifasi -ijtimoiy faol fuqaroni kamol toptirish;

- talabalarga demokratik davlat qurish g‘oyasini singdirib borish orqali jamiyat hayotning barcha sohalarida ijtimoiy faol ishtirokini ta‘minlash;

- talabalarda millatlararo totuvlik, dinlararo bag‘rikenglik, xalq farovonligi, komil inson g‘oyalarini singdirgan holda fuqarolik jamiyatini qurishda faol ishtirokini ta‘minlash;

- talabalarni mustaqil hayotga tayyorlash va ularda ijtimoiy-siyosiy, huquqiy savodxonlikni rivojlantirish;

- Talabalarda ijtimoiy faolligi rivojlanishi «Mentorlik», «Talaba minbari» kabi ijtimoiy loyihalarda faollik ko‘rsatish orqali oshirib borish;

- talabalarni oliy ta‘lim muassasalaridagi, «Yoshlar ittifoqi uyushmalari faoliyatida faol ishtirok etish, o‘zini-o‘zi boshqarish organlari faoliyatiga keng jalb etish» orqali ijtimoiy faolligini rivojlantirish mumkin.

Talabalar oliy ta'lim muassasasi ijtimoiy hayotida, tashabbuskor va volontyorlik guruhlar, o'zini-o'zi boshqarish organlari, jamoat tashkilotlari, «Iqtidorli yoshlar» fan klublari faoliyatida jumladan, talabalar, ota-onalar kengashlari faoliyatini rivojlantirish orqali «ta'lim muassasasi talabalari va ota-onalar» o'rtasida faol hamkorlik muhitini yaratish orqali ko'zlangan maqsadga yetish mumkin.

Ijtimoiy tashabbuskorlikni rivojlantirish sharoitlari orasida ob'ektiv (ta'lim muassasasining demokratik hayot tarzi, uning tarbiyaviy tizimining ochiqligi, ta'lim va tarbiya texnologiyalari va b.q.) hamda sub'ektiv (ijtimoiy tashabbuskorlik va pedagoglarning shaxsiy sifatlari) sharoitlar orqali rivojlanadi. Ammo ijtimoiy tashabbuskorlikning mazkur mezonlarni aniqlashtirish, jumladan ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish bilan qiyoslash va ularda baholash mezonlari va vositalarini aniqlashni talab etadi.

Demak, ilmiy tadqiqot ishlarining tahlili "ijtimoiy tashabbuskorlik - bu inson o'z hayot faoliyatida, fuqarolik jamiyatining faol a'zosi bo'lishi, uning shakllanishi va rivojlanishida ishtirok etish, faol fuqarolik pozitsiyasiga asoslangan qobiliyati va tayyorgarligi natijasidir" deb ta'kidlashga asos bo'ladi.

N.M.Voskresenskaya o'zining ilmiy tadqiqotlarida faol fuqaroni tarbiyalashda fuqarolik ta'limining loyihaviy modelini yaratish, o'quvchilarning muayyan ijtimoiy muammoni aniqlash, tahlil qilish va hal etishga yo'naltirilgan ijtimoiy loyihani ishlab chiqishlari va amalga oshirishlarini ko'zda tutgan. Olim o'z qarashlarida o'quvchilarning loyihaviy faoliyatlari ularning ma'lum ijtimoiy muammoni tanlash, uni tahlil qilish va hal etish variantlarini ishlab chiqish bo'yicha faol faoliyatlarni ko'zda tutgan. Bunda ijtimoiy kompetensiyalar egallanadi, o'smirlar esa atrof hamjamiyatdagi ijtimoiy vaziyatni yaxshilash bo'yicha mas'uliyatli qarorlarni qabul qilishga moslashadi.

Talabalarda ijtimoiy faolligiri vojlantirish muayyan g'oyalar, diniy e'tiqod, faol fuqarolik pozitsiyasi, axloqiy va fuqarolik qadriyatlarini (milliy va umumbashariy madaniyatining asosiy qadriyatlarini hurmat qilish) egallash. An'anaviy qadriyatlar vatanparvarlik, o'z xalqiga xizmat qilish, insonparvarlik, moddiy-pragmatikka nisbatan ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning ustunligi, inson huquqlari, dinlararo bag'rikenglik va boshqa ahloqiy sifatlar orqali rivojlanishda namoyon bo'ladi.

Demak, ilmiy tadqiqot ishlarining tahlili "ijtimoiy tashabbuskorlik - bu inson o'z hayot faoliyatida, fuqarolik jamiyatining faol a'zosi bo'lishi, uning shakllanishi va rivojlanishida ishtirok etish, faol fuqarolik pozitsiyasiga asoslangan qobiliyati va tayyorgarligi natijasidir" deb ta'kidlashga asos bo'ladi.

Xorijiy mamlakatlarda demokratik davlat qurishda, jamoatchilik fikrini o'rganishning nazorat shakllari quyidagicha amalga oshiriladi:

- > davlat hokimiyati va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlariga petitsiyalar bilan murojaat qilish (fuqarolarning individual va jamoa tartibida murojaatlari);
- > hokimiyat faoliyati to'g'risida axborotning fuqarolar uchun ochiqligi (fuqarolar uchun davlat organlarining axborot jihatdan ochiq-oshkoraligi);
- > mahalliy o'zini-o'zi boshqarish, fuqarolar yig'ilishlari va yig'inlari orqali fuqarolarning jamiyat ishlarini boshqarishda ishtiroki;
- > oshkoralik tarzida eshituvlar;
- > qonun loyihalari va davlat hayotining boshqa muhim masalalarining jamoat muhokamalari;
- > qonunchilik hujjatlari loyihalarining jamoat ekspertizasi;
- > jurnalistik tekshiruvlar va boshqa nazorat turlari orqali amalga oshirish, fuqarolik jamiyati shakllanishida muhim o'rin egallaydi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tish lozimki, ijtimoiy tashabbuskorlikni rivojlantirish talaba-yoshlarga demokratik jamiyatda fuqarolik huquq va majburiyatlarining butun majmuini faol, mas'uliyatli va samarali amalga oshirish, o'z bilimlari va ko'nikmalarini amaliyotda qo'llashga imkon beruvchi qobiliyatlarning majmui tushuntirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Xalq so'zi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 23 sentyabrdagi BMT 75 sessiyasidagi nufuzi. 2017 y. 24 sentyabr soni
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz.-Toshkent: O'zbekiston, 2018 .-252-b.
3. Воскресенская Н.М.. Основные подходы к гражданскому образованию в России и за рубежом ./ Н.М. Воскресенская/У Гражданское образование: содержание и активные методы обучения». - М., Логос. - 2005
- 4.A.I.Soyibnazarov. "The Purpose, Objectives And Status Of Training School Teachers Using An Online Platform." JournalNX 6.09: 67-71.
5. Djamilova N.N. Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarida tashabbuskorlikni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari.: Avtoref. dis.ped.DSc. - T., 2019 y. - 14-b.
6. Quronboev Q.Q "Talabalarning ma'naviy - ijtimoiy faolliklarini rivojlantirishning pedagogik asoslari (Yoshlar tashkilotlari misolida)": Ped.f.n...diss. - T.: O'zPFITI, 2000 y.